

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

 Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2024

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00-TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy hodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00-FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'rroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxkarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00-YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliv kengashi huzuridagi Sudyalar oliv maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich - yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pyedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00-SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00-SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning
dolzARB muammolari**” elektron jurnali
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga
olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Turg'unov Sherzod Abduvositovich</i>	
FARG'ONA VILOYATI SANOAT KORXONALARINING MODDIY-TEXNIK HOLATI VA ULARNING SANOAT ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR MULOHAZALAR (Farg'ona viloyatida 1950-1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida)	13-19
<i>Qalandarov Hamza Hamroqul o'g'li</i>	
SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN ATEISTIK SIYOSATI VA XUDOSIZLAR JAMIYATI FAOLIYATI	20-23
<i>Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich</i>	
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IJTIMOIY ALOQALARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR	24-32
<i>Сойиб Раупов</i>	
KAMBAFAALLIK VA UNI ҚИСҚАРТИРИШ MUAMMOLARI	33-42
<i>Abdimo'minov Oybek Bektemirovich</i>	
MARKAZIY OSIYO MINTAQASIGA ILMIY QARASHLAR VA KONSEPTUAL MASALALARNING AYRIM JIHATLARI	43-48
<i>Toshpulatov Nurbek Boboqul o'g'li</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI BOZORLARI VA KARVONSAROYLARI TARIXI	49-53
<i>Temirova Munira</i>	
ESKI TERMIZ SIMOBKO'ZACHALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	54-58
<i>Sattorova Shahlo</i>	
SHAYBONIYLAR DAVRIDA JO'YBOR XO'JALARINING BUNYODKORLIK FAOLIYATI	59-63

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Yazdonova Saxiba Kurbanovna</i>	
KIBERMAKON: TA'LIM, TARBIYA VA IQTISODIY TA'SIR TENDENSIYALARI	64-72
<i>Таниев Аҳмаджон Баҳромовиҷ</i>	
ТУРИЗМ, ГЛОБАЛЛАШУВ ВА САВДО: УЛАРНИНГ АТРОФ-МУҲИТГА ТАЪСИРИ	73-82
<i>Ходжсаниязов Элбек Сардорович</i>	
ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ	83-93
<i>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi</i>	
O'ZBEK SANOATINING INNOVATSION TARAQQIYOTI VA IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	94-99
<i>Ahmedov Adham Djalolovich</i>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH	100-105
<i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i>	
QURILISH KORXONALARI DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	106-112

<i>Abdurahmanov Muxtora</i> ХУДУДИЙ КЛАСТЕРНИ ШАКЛАНТИРИШ БОСҚИЧЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	113-116
<i>Poshokulova Mohigul</i> BILIMLAR IQTISODIYOTINING ZAMONAVIY SHAKLLARI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA	117-122
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: YANGI IMKONIYATLAR VA TAHDIDLAR	123-131
<i>Sayfutdinova Nigina Furkatovna</i> O'ZBEKİSTONDA INNOVATSIYALARНИ RIVOJLANTIRISH ASOSIY AHAMIYATLARI	132-135
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li</i> O'ZBEK XALQI ETOSFERASIDA KORRUPSION MUNOSABATLAR PAYDO BO'LISH SABABLARINING FALSAFIY TAHLILI	136-139
<i>Жўрамуродов Нодир Гайбуллаевич</i> ЖАДИДЛАР ФАЛСАФАСИДА МИЛЛИЙ ФОЯ, МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ВА МИЛЛИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ	140-144
<i>Sayidova Muhabbat G'afforovna</i> GLOBAL AXBOROTLASHUV TENDENSIYALARINING MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI	145-149
<i>Kuraxmedov Azamat Erkinovich</i> SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK FALSAFASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI	150-153
<i>Umarova Feruza Rozibayevna</i> O'ZBEK XALQI MA'NAVIY MADANIYATI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	154-156
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i> KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI	157-161
<i>Begbudieva Parvina Shoxruxovna</i> THE CONTRIBUTION OF MAHMUDHODJA BEHBUDI TO THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN	162-166
<i>Aytbayev Mansurbek Yusupovich</i> МАHMUD AZ-ZAMAXSHARIY AQL-ZAKOVAT TO'G'RISIDA	167-173
<i>Muslimov Sherzod Akbarovich</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MA'NAVIY MEROSI: JAMIYAT, SIYOSAT VA SHE'RIYAT	174-178
<i>Jantayev Maqsud Ibragimovich</i> MUHAMMAD AL-XORAZMIY: MATEMATIKADAN FALSAFAGACHA BO'LGAN ILMIY IZLANISHLAR	179-184
<i>Norova Malika Fayzulloyevna</i> TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING SAYFIDDIN BOXARZIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI	185-191

<i>Gulova Anorgul Axtamovna</i>	
O'ZBEKISTONDA ALISHER NAVOIY ASARLARIKA BO'LGAN MUNOSABAT	192-196
<i>Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich, Karimova Gulchehra Abdukarimovna</i>	
BURCH VA MAS'ULIYAT TUSHUNCHALARINING TARIXIY-NAZARIY, AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI	197-205
<i>Berdikulov Chingiz Dusmuradovich</i>	
IJTIMOIY MULOQOT-SHAXS INTELLEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILI	206-211
<i>Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich</i>	
MILLIY-MA'NAVIY YUKSALISH – MAMLAKATIMIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINING YANGI STRATEGIYASI SIFATIDA	212-216
<i>Nurmatov Kamaridin Shamsiyevich</i>	
JAMIyat TARAQQIYOTIDA ADOLAT TUSHUNCHASINING O'RNI	217-221
<i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i>	
JAMIyat TARAQQIYOTIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINI TA'MINLASHNING DIALEKTIK TAHLILI	222-228
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Бердиева Мукаррама Анваровна, Чернова Наталья Васильевна</i>	
СТРАТЕГИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО ПОДХОДА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ	229-234
<i>Жамаҳматов Каромиддин Айнилло ўғли</i>	
БУРХОНИДДИН ТЕРМИЗИЙ АСАРЛАРИНИНГ САЛЖУҚИЙЛАР ДАВРИДА ЯРАТИЛГАН ТАСАВВУФИЙ МАНБАЛАРГА ТАЪСИРИ	235-243
<i>Temirova Aziza Muzaffarovna, Uralova Oysuluv Poyan qizi</i>	
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA "КО'К" SIFAT BELGISINING SEMANTIK XUSUSIYATLARINING TADQIQI	244-247
<i>Mansurova Mohinur Akmal qizi</i>	
HAJVIY TAFAKKUR TABIATI – SATIRA VA YUMOR TUSHUNCHASI	248-252
<i>Яркулова Фотима Усмановна, Исломова Марьям</i>	
ИМЕННОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В ПОВЕСТЯХ И.С.ТУРГЕНОВА	253-257
<i>Murodova Muqadas Ikromovna</i>	
XX ASR INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN SATIRIK ASARLAR TADQIQI	258-263
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i>	
O'ZBEK ADABIYOTIDA LATIFA JANRI TARAQQIYOTI VA TAHLLILI	264-268
<i>Davronov Shekroz Abrorovich</i>	
OG'ZAKI TARJIMA VA UNDA KOMPRESSIYANING ROLI	269-273
<i>Begmatov Azizbek Tursunbayevich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLER TADQIQI	274-280
<i>Ibragimova Moxiraxon Anvarovna</i>	
NUTQIY AKTLAR TASNIFI	281-285
<i>Расулова Истода Абдулатифовна</i>	
К ПРОБЛЕМЕ ДЕФИНИЦИИ ЯЗЫКОВЫХ УНИВЕРСАЛИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВАРИАНТНЫХ СВОЙСТВ В КОНТЕКСТЕ ЯЗЫКОВОЙ ВАРИАТИВНОСТИ	286-293

<i>Obidova Go'zalxon Ma'rufjon qizi</i>	
O'ZBEK TILIDA OMAD VA OMADSIZLIKNI NOMLOVCHI LEKSIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKAR	294-299
<i>Furkatova Maxliyo To'lqin qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SHAXS-SON KATEGORIYASI	300-309
<i>Baxramov Xabibillo Sadikovich</i>	
INGLIZ TILIDA "POISON-ZAHAR" KONSEPTINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	310-315
<i>Tухтаев Сирожиддин Тошпўлатович</i>	
ПАРЕМИОЛОГИЯДА САХИЙЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	316-323
<i>Qiyomov Shohabbosxon Sharofiddin o'g'li</i>	
XATTOTLIK SAN'ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	324-327
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i>	
YOLG'IZLIK FENOMENINING PSIXOLOGIK, IJTIMOIY VA EKZISTENSIAL ASPEKTLARI	328-331
<i>Qayumova Mohinur Murodullayevna</i>	
LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT «STEP» IN THE ENGLISH LANGUAGE	332-337
<i>Sayipova Dilafruz Rahimovna</i>	
O'ZBEK NASRI TARAQQIYOTIDA "BOBURNOMA"NING AHAMIYATI	338-342
<i>Diyarov Akmal To'lqin o'g'li</i>	
INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING GENETIK-ETIMOLOGIK TAVSIFI	343-348
<i>Аманазарова Шохида Бахрамовна</i>	
РЕКЛАМАДА ИЛЛОКУЦИЯ ВА ПЕРЛОКУЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИШИДА БИЛБОРДЛАРНИ АҲАМИЯТИ (РЕКЛАМА БАННЕРЛАРИ МИСОЛИДА)	349-353
<i>Mamadqulova Kamila Abduxoliquovna</i>	
ANCIENT EGYPTIAN LITERATURE: THE OLD, MIDDLE AND NEW KINGDOMS	354-364
<i>Alimova Dilrabo</i>	
SHARQ ADABIYOTIDA QASIDANING TARIXIY TAKOMILI	365-373
<i>Abduqaxxorova Nargiza Rustamovna</i>	
RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI	374-379
<i>Курбонова Нодира Розиковна, Пулатова Сабина Шарифовна</i>	
ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ ТЕМЫ УТРАЧЕННОЙ РОДИНЫ В РОМАНЕ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА «МАШЕНЬКА»	380-390
<i>Khamidov Tohirjon Olmos ogli</i>	
ANALYSIS OF TYPES OF ENGLISH PHRASAL VERBS ACCORDING TO THE STRUCTURE	391-396
<i>Umurzakova Kommina Xursanovna</i>	
O'ZBEKİSTON İJTİMOİY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQİDAGI O'ZGARISHNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	397-402
<i>Habibullayeva Shoira Shukurillayevna</i>	
ONA TİLİ DARSIDA GAP BO'LAKLARI VA ULARNI TAHLİL QILISH METODİKASI	403-406

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Imomov Nurillo Fayzullayevich</i> ТА’MINLOVCHI TO’LOV – MAJBURIYATLARNI TA’MINLASHNING YANGI USULI SIFATIDA	407-414
<i>Салаев Нодирбек Сапарбаевич</i> ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА ДЕКРИМИНАЛИЗАЦИЯ: МОҲИЯТИ, ТУРЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	415-431
<i>Ходжиев Юнус Мухитдинович</i> МУЛК ҲУҚУҚИ БЕКОР БЎЛИШИНинг ШАХС ИХТИЁРИГА БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН АСОСЛАРИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ	432-436
<i>Сайдивалиева Хуршида</i> БОЛАЛАРНИ ОИЛАГА ТАРБИЯГА БЕРИШ ЎЗАСИДАН ВУЖУДГА КЕЛУВЧИ МУНОСАБАТЛАРНИ КЕЛИШУВЛАР АСОСИДА ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ	437-445
<i>Miqutov Bobur</i> THE LEGAL NATURE OF E-COMMERCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	446-451
<i>Raimova Nargiza Doroyevna, To’uchiyeva Bahora Otabekovna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS	452-459
<i>Чориева Хуршидабону Хуррам қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК ОРГАНЛАРИНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	460-468
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> UNDIRUVNI INTELLEKTUAL MULK OBYEKTALARIGA BO’LGAN HUQUQLARGA QARATISHNING AYRIM FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI	469-478
<i>Kubaeva Ismigul Farxod qizi</i> CHALLENGES OF BLOCKCHAIN TO LAW AND STATE	479-484
<i>Юсупов Ўқтамбай Абсаматович</i> ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ КОРРУПЦИЯВИЙ ҲУҚУҚБУЗАРЛИККА ҚАРШИ КУРАШДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	485-491
<i>Баходирова Сабина Улугбек кизи</i> РОЛЬ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ УМЫШЛЕННОГО ТЯЖКОГО ТЕЛЕСНОГО ПОВРЕЖДЕНИЯ	492-503
<i>Эгамбердиев Ферузбек Аскаржон угли</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТИТУТА ХОДАТАЙСТВ КАК СПОСОБ ЗАЩИТЫ ПРАВ УЧАСТНИКОВ НА ДОСУДЕБНОМ ЭТАПЕ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	504-508
<i>Ibrohimov Behzodbek Bahromjon o’g’li</i> O’ZBEKİSTONDA MOLİYAVİY HUQUQIY MUNOSABATLAR ASOSI VA AHAMIYATI	509-520
<i>To’uchiyeva Bahora Otabekovna, Raimova Nargiza Doroyevna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS	521-528

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ibraximov Sanjar Urumbayevich</i> SPORT MASHG'ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI VA TAMOYILLARI	529-539
<i>Urazkulova Anna Vitalyevna</i> OLIY TA'LIMDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING TOPSHIRIQLARINI ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI	540-545
<i>Қаршиева Дилбар Эшулатовна</i> ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛарни ШАКЛЛАНИШИДА МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ	546-550
<i>Ajiyeva Muxabbat Baxtibayevna</i> KIMYO FANI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH	551-555
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboevna</i> O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL: JARAYON VA FAOLIYATLI YONDASHUV	556-564
<i>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</i> SHIFTING THE FOCUS OF CORPUS LINGUISTICS FROM RESEARCH TO CLASSROOM PRACTICE	565-570
<i>Акрамова Умеда Салиевна</i> ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОВЫМ ФОНОМ	571-582
<i>Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi</i> MATEMATIKA FANINI LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	583-590
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i> SHAXMAT O'YINI ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	591-595
<i>To'xtayev Hasan Tosho'lalovich</i> ZAMONAVIY MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOGNITIV- PSIXOLOGIK TO'SIQLARNING TA'SIRI	596-599
<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLAHTIRISH	600-607
<i>Rahimova Dilshoda Baxriddinovna, Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH (SOTSILOGIK TAHLIL)	608-615
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир қизи</i> МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МОСЛАШТИРИЛГАН ВИРТУАЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ	616-619
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TEXNIKA OLIY TA'LIM SOHASI MUTAXASSISLARDA KASBIY-IJODIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	620-626

<i>Aliyeva Iroda Otabek qizi</i>	
МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМГА XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH BO'YICHA MAVJUD TA'LIM TALABLARINING TASNIFI YUZASIDAN TAHLILLAR	627-631
<i>Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li</i>	
О'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING CHOLG'USHUNOSLIKKA OID NAZARIYALARI: ABU NASR FOROBIYNING MUSIQIY TADQIQOTLARI	632-636
<i>Yaxshiboyeva Shahnoza Bahodir qizi</i>	
JAHON AXBOROT RESURSLARI ORQALI TALABALARING TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI	637-642
<i>Салиев Улугбек, Салиева Нигора</i>	
ОБЩЕНИЕ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В ПРАКТИКЕ	643-648
<i>Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи, Абдуллаева Дилбар Алимбаевна</i>	
МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, И ПУТИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ	649-655
<i>Муминова Офтобхон Каримовна</i>	
ИСТОРИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ: ОТ АНТИЧНОСТИ ДО СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ	656-661
<i>Ахмедова Уктамхон</i>	
РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ	662-667
<i>Sattarova Markhabo Raxmonkulovna</i>	
TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	668-672
<i>Nuriddinova Robiya Bekjonaliyevna</i>	
МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA MASHG'ULOTLARINING UZVIYLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	673-678

Received: 30 November 2024

Accepted: 5 December 2024

Published: 15 December 2024

Article / Original Paper

DIALECTICAL ANALYSIS OF ENSURING THE UNITY OF SYMMETRY AND ASYMMETRY IN DEVELOPMENT OF SOCIETY

Bekpulatov Ulugbek Rahmatulla ugli

Doctoral candidate of Navoi State University, (PhD), Lecturer

Abstract. This article analyses the socio-philosophical nature of symmetry and asymmetry and their relationship in the context of the laws of dialectics. The result is based on the fact that symmetry is what ensures justice, equilibrium and stability in society, while asymmetry is the most important phenomena of change and development. Through this, a dialectical concept of interpreting the importance of symmetry and asymmetry in the development of society has been developed.

Keywords: symmetry, asymmetry, justice, equality, inequality, equilibrium, imbalance, stability, instability, contradiction, negation-negation, quantity of change, quality of change.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINI TA'MINLASHNING DIALEKTIK TAHLILI

Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li

Navoiy davlat universiteti doktoranti, (PhD), dotsent

E-mail: bekpolatov.u@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada simmetriya va asimmetriyaning ijtimoiy-falsafiy mohiyati hamda ularning o'zaro munosabatlari dialektika qonunlari kontekstida tahlil etilgan. Natijada simmetriya jamiyatdagiadolat, muvozanat va barqarorlikni ta'minlovchi, asimmetriya esa o'zgarish va rivojlanishning eng muhim fenomenlari ekanligi asoslangan. Bu orqali simmetriya va asimmetriyaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini izohlashning dialektik konsepsiysi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: simmetriya, asimmetriya,adolat, tenglik, tengsizlik, muvozanat, muvozanatsizlik, barqarorlik, beqarorlik, qarama-qarshilik, inkorni-inkor, miqdor o'zgarishlar, sifat o'zgarishlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N34.1>

Kirish. Zamonaviy jamiyatlarning o'sishi, rivojlanishi va transformatsiyasi ko'plab murakkab omillar va dinamikalar ta'sirida ro'y bermoqda. Bu jarayonlarning tabiiy xususiyati – turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tengsizliklar va qarama-qarshiliklar bilan bog'liqdir. Aytish mumkinki, jamiyatdagi taraqqiyot simmetriya va asimmetriyaning o'zaro bog'liqligi va ta'siridan iborat bo'lgan ijtimoiy voqelikdir. Ijtimoiy reallikning bu ikki fenomeni jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy tuzilmalarida muhim rol o'ynaydi.

Simmetrik va asimetrik yondashuv – jamiyatning rivojlanishi va ijtimoiy strukturalaridagi o'zgarishlarni tushunishda muhim paradigmadir. Simmetriya, bir tomondan, jamiyatdaadolat va tenglikni ta'minlash hamda barqaror tizim yaratishga yordam berishi mumkin. Boshqa tomondan, asimmetriya, jamiyatdagi farqliliklar, qarama-qarshiliklar va

tengsizliklarni tashkil etadi, bu esa o'zgarishlarni, yangilanishlarni va o'zgaruvchan tizimlarni keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan, simmetriya va asimmetriyaning jamiyatdagi o'zaro aloqadorligi va birligi, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va tenglikka erishish uchun muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy islohotlar, iqtisodiy o'zgarishlar va madaniy transformatsiyalar jarayonida simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi o'zaro aloqani to'g'ri tushunish zarur. O'zbekiston misolida, jamiyatda simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi o'zaro aloqani tahlil qilish, iqtisodiy va ijtimoiy tengsizliklar, madaniy farqlar va siyosiy islohotlar kontekstida, jamiyatning qanday rivojlanishini va bu jarayonlarda qanday muammolar yuzaga kelishini aniqlashga yordam beradi. Shu sababli, jamiyat taraqqiyotida simmetriya va asimmetriya birligini ta'minlashning dialektik tahlili nafaqat ijtimoiy nazariyaga, balki amaliy hayotga ham chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ko'plab ijtimoiy borliqqa oid falsafiy va ijtimoiy-nazariy tadqiqotlarda simmetriya va asimmetriya tushunchalari bevosita ishlatilmagan bo'lsada, ular tenglik,adolat va kuch taqsimoti hamda ularning buzilishi kabi masalalar orqali bu kategoriyalar bilan bog'liq bo'lgan g'oyalarni ko'rib chiqishgan. Masalan, Platon o'zining "Davlat" asarida ijtimoiy borliqning tuzilishi haqida asosiy qarashlarni bayon etib, jamiyatni uch guruhga (faylasuflar, askarlar va hunarmandlar) bo'lib, har bir guruhnинг o'z vazifasi va o'rni mavjudligini tushuntiradi [6]. Platonning yondashuvi o'zaro muvozanat va simmetriya asosida jamiyatni idora qilish zarurligini ko'rsatadi, ammo bu yerda simmetriya nisbiy, chunki jamiyatda har bir ijtimoiy guruhnинг tenglik darajasi emas, balki funksional uyg'unlashuvi muhim hisoblanadi. Aristotel – o'zining "Siyosat" asarida jamiyatning asosiy tuzilmasi va undagi tabaqalashuv haqida fikrlar mavjud[1]. Aristotel ijtimoiy tabaqalashuvni tabiiy hodisa sifatida qaraydi va bu tabaqalashuvga asoslangan asimmetriyaga xos bo'lgan munosabatlar, uning fikricha, jamiyatni samarali boshqarish uchun zarur. Aristotelning jamiyat haqidagi g'oyalarida bevosita simmetriya va asimmetriya tushunchalaridan foydalanmagan bo'lsada, ijtimoiy tizimlarda simmetriya va asimmetriyaga xos xususiyatlar birligini saqlash orqali jamiyat barqarorligini ta'minlash mumkinligiga oid fikrlarni uchratish mumkin. Gegelning dialektikasi esa ijtimoiy borliqning murakkab va o'zgaruvchan tabiatini chuqurroq anglashga imkon beradi. Uning fikricha, ijtimoiy tizimlar dinamik o'zgarishlar orqali rivojlanadi, bu esa o'z-o'zidan simmetriya va asimmetriyaning doimiy almashinuvi va ziddiyatini keltirib chiqaradi. Gegel o'zining "Ruh fenomenologiyasi" asarida ijtimoiy borliqni dialektik usul bilan tahlil qilib, o'zaro qarama-qarshiliklar orqali rivojlanish g'oyasini ilgari suradi, bu yerda asimmetriya ijtimoiy o'zgarish va rivojlanish omili sifatida qaraladi [4]. Karl Marks ijtimoiy borliqni iqtisodiy munosabatlarga asoslangan asimmetrik tuzilma sifatida talqin qiladi. U jamiyatdagi sinfiy tafovutlarni, ya'ni ishlab chiqaruvchi va egalar o'rtasidagi asimmetrik munosabatlarni tahlil qilib, bu tabaqalashuv jamiyatda tengsizlikni kuchaytirishini ta'kidlaydi. "Kapital" asarida sinfiy kurashni tahlil qilarkan, Marks jamiyatning asimmetrik tuzilishi ijtimoiy ziddiyatlar manbai ekanligini va bu ziddiyatlar ijtimoiy inqilob orqali simmetrik,adolatli jamiyatga aylanishi mumkinligini aytadi[5]. Emil Dyurkgeym o'zining "Jamiyatdagi mehnat taqsimoti" nazariyasida mehnat taqsimotining jamiyatdagi asimmetrik tuzilmasiga asoslanadi[3]. Uning nazariyasiga ko'ra, mehnat taqsimoti ijtimoiy bog'liqlikni ta'minlash bilan birga, ijtimoiy uyg'unlikni ham yaratadi. Dyurkgeym simmetriya va asimmetriyani jamiyat

barqarorligiga erishishda muhim omil sifatida ko'radi. Uning fikricha, har bir ijtimoiy vazifalar va rollar o'zaro bog'liq va muvozanatlashgan bo'lishi kerak.

Zamonaviy tadqiqotlarda simmetriya va asimmetriya ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiyadolat, va teng imkoniyatlar kontekstida kengroq o'rganilgan. Masalan, Jon Rolzningadolat nazariyasi asarida simmetriya va asimmetriyani ijtimoiyadolat nuqtai nazaridan tushuntiradi[7]. Uning fikricha,adolat asosan teng imkoniyatlar va resurslarning muvozanatli taqsimlanishini talab qiladi, ammo asimetrik holatlar (masalan, ijtimoiy kam ta'minlangan guruhlar uchun maxsus imtirozlar)adolat tamoyillarini ta'minlashda zarur. Mishel Fuko ijtimoiy tuzilmalardagi kuch munosabatlarini asimetrik sifatida ko'radi. U ijtimoiy institatlarning nazorat va kuch tuzilmalari orqali qanday qilib insonlarga ta'sir o'tkazishini o'rganadi. "Intizomiy hokimiyat" konsepsiyasida u ijtimoiy simmetriya va asimetriya tushunchalarini institutlar tomonidan nazorat va kuch tuzilmasi orqali amalga oshirishini tahlil qiladi[8]. Pyer Burde ijtimoiy kapital va simvolik kapital tushunchalarini ijtimoiy tengsizliklarni tushuntirishda qo'llaydi[2]. U ijtimoiy borliqni asimetrik tuzilma sifatida tasvirlab, o'z asarlarida ijtimoiy holatlar va kapitalning jamiyatdagi resurs taqsimotiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Bu yerda asimetriya ijtimoiy kapitaldan foydalanish imkoniyatlaridagi farqlar sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday bo'sada, jamiyat taraqqiyotida aynan simmetriya va asimetriya birligiga oid jihatlar dialektik tahlil vositasida yetarlicha o'rganilmagan.

Simmetriya va asimetriya tushunchalari dialektik yondashuv nuqtai nazaridan o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi kategoriylar sifatida qaraladi. Simmetriya va asimetriya dialektik jarayonning ajralmas qismidir, chunki ular jamiyatning rivojlanishida ijtimoiytizimlarning o'zgaruvchanligi va dinamikasini belgilaydi.

Simmetriya - bu ma'lum bir tizimda, jarayonda yoki munosabatda barcha qismlarning bir-biriga nisbatan teng yoki o'xshash bo'lishi holatini anglatadi. Ijtimoiy reallikda esa simmetriya dolat, tenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Simmetriya jamiyatning barcha qatlamlari va tizimlarining bir-biriga mos va uyg'un bo'lishini ta'minlaydi, bu esa ijtimoiy muvozanatni va barqarorlikni kuchaytiradi.

Asimetriya esa, aksincha, tizimda yoki jarayonda biror qismlar orasidagi farqlarni, tengsizlikni va noaniqliklarni anglatadi. Ijtimoiy tizimda asimetriya iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlar o'rtasida farqlarning mavjudligini ko'rsatadi. Bu farqlar jamiyatdagi hukmronlik, resurs taqsimoti va imkoniyatlar o'rtasidagi tengsizliklarni keltirib chiqaradi. Biroq, asimetriya ijtimoiy tizimning o'zgaruvchanligini va rivojlanishini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. U yangi imkoniyatlar yaratishga, tizimlarni yangilashga va muvozanatni topishga yordam beradi.

Natijalar va muhokama. Ma'lumki, dialektika - simmetriya va asimetriya tushunchalarining o'zaro aloqasini va birligini anglashda samarali yondashuv hisoblanadi. Dialektikaning uchta qonuni hisoblangan qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi qonuni, inkorni - inkor qonuni, miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlarga aylanishi qonuni - simmetriya va asimetriya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishga yordam beradi. Biz quyida simmetriya va asimetriyaning jamiyat taraqqiyoti jarayonlaridagi o'zaro aloqasini ushbu uchta qonun nuqtai nazaridan tahlil qilamiz.

Qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi qonuni: Simmetriya va asimetriya o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va ularning kurashi jamiyatda yangi o'zgarishlarni,

rivojlanishlarni va sifatli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bu jarayon, ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi farqlarni va muvozanatni aniqlashga yordam beradi. Agar simmetriya tizimni barqarorlashtirsa, asimetriya tizimda o'zgarishlarni va yangilanishlarni yuzaga keltiradi.

Simmetriya va asimetriya o'rtasidagi dialektik kurash jamiyatni rivojlantirishga olib keladi. Masalan, siyosiy tizimda, ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun simmetriya kerak, ammo tizimdagи farqlarni tushunish va bartaraf etish uchun asimetriya zarurdir. Boshqa tomondan, ijtimoiy farqlarni bartaraf etish, jamiyatda yangi imkoniyatlar yaratish va siyosiy islohotlar amalga oshirish uchun asimetriya zarurdir.

Ushbu jarayonning o'zgaruvchanligi, qarama-qarshiliklar va ularning kurashi jamiyatda yangi ijtimoiy tizimlarni yaratishga, barqarorlikni ta'minlash va yangilanishlarni amalga oshirishning katalizatoridir.

Inkorni — inkor qonuni. Dialektikaning ikkinchi qonuni, ya'ni inkorni inkor (tezis-antitezis-sintez) qonuni, ijtimoiy va tarixiy jarayonlarning o'zgarishdagi asosiy mexanizmidir. Bu qonun, o'zgarishlarning qanday qilib bir-birini inkor etadigan (qarama-qarshi) kuchlar orqali yuzaga kelishini va oxir-oqibatda bu inkorlarning sintez (ya'ni yangi sifat) bilan yakunlanishini tushuntiradi. Inkorni inkor jarayoni jamiyatdagi qarama-qarshiliklar va o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, bu esa ijtimoiy tizimlarning rivojlanishiga olib keladi. Ushbu jarayonda simmetriya va asimetriya o'rtasidagi munosabatlar ham o'zgarib, yangi ijtimoiy tuzilmalarni yaratadi.

Simmetriya, ijtimoiy tizimlarda tenglik,adolat va barqarorlikni ta'minlaydigan jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Biroq, simmetriyaning o'zi ham o'zgarish va rivojlanishga qaratilgan ijtimoiy jarayonlarni cheklab qo'yishi mumkin. Agar jamiyatda faqat simmetriya bo'lsa, bu ba'zan tizimning nisbatan statik va islohotsiz bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ya'ni, barcha ijtimoiy guruhrar bir xil vaziyatda bo'lsa, yangi ijtimoiy qatlamlar, imkoniyatlar yoki o'zgarishlar uchun joy qolmasligi mumkin. Bu holatning o'zi simmetriyaning **inkorni inkor** jarayonini keltirib chiqaradi, ya'ni simmetriya o'zining yetishmovchiliginini va ijtimoiy tizimni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan farqlarni (asimetriya) qidirishga majbur qiladi. Masalan, iqtisodiy tizimda barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar taqdim etish orqali bir vaqtning o'zida tizimning ba'zi qismlari rivojlanishdan mahrum bo'lishi mumkin. Resurslar va imkoniyatlarning bir xilligida, yangi iqtisodiy imkoniyatlar, innovatsiyalar va yangilanishlar yuzaga kelmasligi mumkin. Ushbu inkor — simmetriya o'zining cheklovlarini tan olish va yangi imkoniyatlar yaratish uchun asimetriya (farq va o'zgarishlar) ga yo'l ochadi.

Asimetriya ijtimoiy tizimda mavjud farqlar, noaniqliklar va qarama-qarshiliklarni anglatadi. Asimetriya o'zining xususiyatlari bilan tizimdagи tengsizliklarni yaratadi, masalan, iqtisodiy tengsizliklar, siyosiy farqlar yoki madaniy ziddiyatlar. Lekin bu tengsizliklar ham o'z navbatida yangi imkoniyatlar va yangilanishlar yaratishga yordam berib, jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, asimetriyaning yuqori darajada rivojlanishi jamiyatda ijtimoiy beqarorlik vaadolatsizlikka ham olib kelishi mumkin. Ushbu holat jamiyatni noaniqliklar va qarama-qarshiliklar "girdobida" qoldiradi. Shu sababli, asimetriya o'zining inkorni inkor qilishga muhtoj, ya'ni tizimdagи farqlar va tengsizliklar o'zgarishi va yangi birlashgan tizimni yaratish uchun simmetriya bilan uyg'unlashishi kerak. Bu sintez orqali jamiyatda ijtimoiyadolat, tenglik va muvozanatni ta'minlash mumkin. Misol tariqasida, o'zgarishlar va islohotlar orqali iqtisodiy tizimda resurslar taqsimotiadolatli va teng bo'lishi kerak. Bu yerda, asimetriya – iqtisodiy farqlar va tengsizliklarning mavjudligi,

o'zining inkorini inkor qilib, jamiyatda yangi birlashtiruvchi tizimga olib keladi. Ushbu dialektik jarayonning oxirgi bosqichi sifatida, simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi muvozanat va ularning sintezi jamiyatni rivojlantiradigan asosiy kuchga aylanadi. Bu jarayon jamiyatdaadolat, tenglik va barqarorlikni ta'minlash, shu bilan birga, yangilanishlar va o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlarga aylanishi: Dialektikaning uchinchi qonuni, ya'ni miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlarga aylanishi, jamiyat hayotidagi o'zgarishlar va rivojlanishni tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu qonunga ko'ra, miqdoriy o'zgarishlar (masalan, resurslarning ko'payishi yoki kamayishi) bir nuqtaga yetgach, sifatiy o'zgarishlarga olib keladi. Bu jarayon, jamiyatda simmetriya va asimmetriyaning o'zgarishini ham tasvirlashda muhimdir. Miqdoriy o'zgarishlar ijtimoiy hayotdagi farqlarni (asimmetriya) va barqarorlikni (simmetriya) o'zgartirishga sabab bo'ladi va bu o'zgarishlar sifatiy o'zgarishlarga olib keladi.

Bu qonun simmetriya va asimmetriyaning jamiyatdagi o'zaro aloqasini tushunishda asosiy rol o'ynaydi. Simmetriya bu jarayonda miqdoriy o'zgarishlarning ijtimoiy barqarorlik, tenglik vaadolat asosida amalga oshirilishini ta'minlaydi. Masalan, iqtisodiy va siyosiy islohotlar davomida davlatning yirik loyihalari va resurslar taqsimoti tizimi kengayadi, bu esa jamiyatda yangi tenglik va barqarorlikni yaratadi. Asimmetriya esa, miqdoriy o'zgarishlar asosida sifatlari o'zgarishlarni yaratadi. Asimetrik o'zgarishlar orqali yangi imkoniyatlar va sharoitlar yaratilib, jamiyatdagi o'zgarishlar sifatini yanada o'zgartiradi. Bu jarayonlar bir vaqtning o'zida ba'zi guruhlarni yaxshilab, boshqalarini esa o'zgarishlarga qarshi kurashishga majbur qiladi.

Simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi munosabatlar dialektikaning uchinchi qonuni asosida o'zgaradi, chunki tizimda bir nuqtaga yetgan miqdoriy o'zgarishlar jamiyatning sifatini tubdan o'zgartiradi. Boshqacha aytganda, miqdoriy o'zgarishlar ijtimoiy tizimda yangi sifatlarni yaratadi va jamiyatni yangi bosqichga olib chiqadi.

Miqdoriy o'zgarishlar jamiyatda resurslar, imkoniyatlar, tartiblar va ijtimoiy farqlar kabi jihatlarda ro'y beradigan o'zgarishlardir. Bu o'zgarishlar jamiyatning miqdoriy tomonini tashkil etadi. Masalan, iqtisodiy resurslarning ortishi yoki kamayishi, aholining sonining ko'payishi, ijtimoiy imkoniyatlar yoki ta'lim darajasining o'zgarishi kabi miqdoriy o'zgarishlar jamiyatni o'zgartirishga olib keladi. Lekin, miqdoriy o'zgarishlar qachonki ma'lum bir chegaraga yetganda, sifatiy o'zgarishlarga aylanadi. Bu o'zgarishlar jamiyatdagi tuzilmaviy o'zgarishlarni, ijtimoiy tizimlarning yangi shakllarini va qadriyatlarni ifodalaydi. Sifatiy o'zgarishlar, miqdoriy o'zgarishlarning ta'siri bilan yuzaga keladi va jamiyatda yangi sifatlarni yaratadi. Bu jarayon simmetriya va asimmetriyaning ham o'zgarishini anglatadi. Jamiyatda simmetriya o'rnatilganida, resurslar va imkoniyatlar teng taqsimlanadi, ijtimoiy guruuhlar o'rtasidagi farqlar kamayadi va jamiyatda umuman olganda muvozanat o'rnatiladi. Biroq, simmetriya miqdoriy o'zgarishlarga asoslanadi. Masalan, iqtisodiy barqarorlik va teng resurs taqsimoti ko'paygan resurslar, yangi ish o'rnlari va imkoniyatlar yaratish orqali amalga oshiriladi. Ammo bu o'zgarishlar faqat miqdoriy ko'rsatkichlarda o'zgarish bo'lsa, yangi ijtimoiy tuzilmalarga olib kelmaydi. Simmetriyaning miqdoriy o'zgarishlari biror nuqtaga yetganda sifatlari o'zgarishga, yangi ijtimoiy tizimni shakllantirishga olib keladi. Misol tariqasida, iqtisodiy tenglik vaadolatli taqsimotning o'sishi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi, lekin bu faqat miqdoriy o'zgarishlar darajasida qolishi mumkin. Agar resurslar miqdoriy ravishda oshsa, lekin

bu o'zgarishlar yangi ijtimoiy tizimlar va ijtimoiy qadriyatlarni yaratmasa, simmetriya faqat statik bo'lib qoladi. Shuning uchun miqdoriy o'zgarishlar jamiyatda sifatli ijtimoiy o'zgarishlarga olib keladi, bu esa ijtimoiy adolat va tenglikni yangilanishlarga olib keladi.

Asimmetriya, jamiyatdagi tengsizliklar, farqlar va ijtimoiy beqarorlikni anglatadi. Asimmetriya jamiyatdagi o'zgarishlarni yaratadi, ammo bu o'zgarishlar tez-tez ijtimoiyadolatsizlik, nizo va beqarorlikka olib kelishi mumkin. Miqdoriy asimmetriya jamiyatdagi farqlarni yanada kuchaytirishi mumkin, bunga misol sifatida boylikning ko'payishi yoki ayrim ijtimoiy guruhlarning imtiyozlari ortishini aytish mumkin.

Asimmetriyaning miqdoriy o'zgarishlari, resurslar va imkoniyatlarning taqsimotida tengsizlik bo'lsa ham, bu o'zgarishlar jamiyatda sifatli o'zgarishlarga olib keladi. Misol uchun, iqtisodiy tengsizliklar, siyosiy asimmetriya va ijtimoiy farqlar ba'zan tizimni yangilanishga olib keladi. Ijtimoiy qarama-qarshiliklar va farqlar, o'z navbatida, yangi siyosiy va iqtisodiy tizimlar yaratadi, bu jarayon ijtimoiy sifatning o'zgarishiga olib keladi.

Boshqa tomondan, asimmetriyaning yuqori darajaga yetishi, ijtimoiy beqarorlikka, ijtimoiy ziddiyatlarga va inqilobi o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bu esa jamiyatda yangi sifatli ijtimoiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Miqdoriy o'zgarishlar jamiyatdagi simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi yangi muvozanatni yaratadi. Bu o'zgarishlar sifatli yangi tuzilmalarini yaratadi. Simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi dialektik jarayon, miqdoriy o'zgarishlarning sifatli o'zgarishga aylanishini ta'minlaydi. Bu jarayon jamiyatda yangi ijtimoiy qadriyatlarni, siyosiy tizimlarni va iqtisodiy tuzilmalarini yaratadi.

Demak, dialektikaning uchinchi qonuni, simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi jarayonni tushunishda asosiy rol o'ynab, miqdoriy o'zgarishlar jamiyatda yangi sifatlarni yaratadi, bu esa ijtimoiy tizimlarning, siyosiy tuzilmalar va iqtisodiy jarayonlarning o'zgarishiga olib keladi. Simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi o'zgarishlar yangi ijtimoiy tuzilmalar va ijtimoiyadolatni yaratish uchun zarur bo'ladi. Shunday qilib, miqdoriy o'zgarishlar ijtimoiy hayotda sifatli o'zgarishlarga olib keladi va jamiyatni yangi bosqichga olib chiqadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, dialektikaning uchta asosiy qonuni — qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi, inkorni inkor va miqdoriy o'zgarishlarning sifatiy o'zgarishlarga aylanishi — jamiyat hayotidagi simmetriya va asimmetriyaning o'zaro aloqasini tushunishda markaziy o'rinni tutadi. Har bir qonun o'zining maxsus ijtimoiy va falsafiy ma'nosiga ega bo'lib, simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi dialektik jarayonni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Jamiyat taraqqiyotida simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi dialektik munosabatlar, o'zgarishlarni keltirib chiqarish, yangi ijtimoiy strukturalarni yaratish va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Simmetriya va asimmetriya bir-birini inkor qilib, shu bilan birga bir-birini to'ldiradi va jamiyatda sifatli o'zgarishlarni amalgalashadi.

Jamiyat taraqqiyotida simmetriya va asimmetriya birligini ta'minlashning dialektik tahliliga oid fikrlardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni berishimiz mumkin:

- jamiyatdagi ijtimoiy strukturalar va jarayonlarda simmetriya va asimmetriyaning o'zaro ta'sirini tizimli tahlil qilish uchun maxsus ilmiy-uslubiy dasturlar ishlab chiqish lozim. Bu jarayon o'zgarishlarni prognozlash va boshqarishga yordam beradi;

- jamiyatda barqarorlikni ta'minlash uchun simmetrik jihatlarni saqlash zarur. Shu bilan birga, asimmetriyaning innovations imkoniyatlarini rivojlantirish orqali jamiyat rivoji uchun yangi imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiqdir;
- qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi qonuni asosida jamiyatdagi ijtimoiy nizolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqish lozim. Bu simmetriya va asimmetriya muvozanatini saqlashga xizmat qiladi;
- asimmetrik jarayonlar orqali yangi ijtimoiy strukturalar yaratish uchun innovations siyosat va dasturlarni qo'llab-quvvatlash, ayniqsa texnologik rivojlanish va ijtimoiy muammolarni hal qilish sohasida muhim ahamiyatga ega;
- simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi dialektik jarayonlarni muntazam o'rganib borish, yangi ma'lumotlar asosida strategiyalarni yangilash va ularni jamiyat taraqqiyotiga moslashtirish zarur.

Ijtimoiy borliqda simmetriya va asimmetriyaning dialektik tahliliga oid yuqorida fikrlar va ishlab chiqilgan takliflar ijtimoiy taraqqiyotning zamонавиy paradigmalarini nazariy asosda rivojlantiribgina qolmay, balki jamiyat hayotining turli sohalarida aniq amaliy natijalarini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Аристотель. Политика. Перевод Т.А. Миллера. — ООО «Издательство ACT», 2018. — 369 с.
2. Bekro'latov, U.R. Jamiyat taraqqiyotida uyg'unlikni ta'minlashning dissimmetrik paradigmasi. Tamaddun nuri journali, 2024-yil, 9-son. — 216–220-betlar.
3. Durkheim, Emile. The Division of Labour in Society. Trans. W. D. Halls. Intro. New York: Free Press, 1997. — 278 p.
4. Гегель Г. Феноменология духа. — ООО «Издательство ACT», 2021. — 450 с.
5. Маркс К. Капитал. Т. 1. — ООО «Издательство ACT»; Москва, 2001. — 1702 с.
6. Платон. Государство. — Издательство ACT, 2016. — 64 с.
7. Ролз Дж. Теория справедливости. Под ред. В.В. Целищева. — Издательство Новосибирского университета, 1995. — 500 с.
8. Сокулер З.А. Концепция «Дисциплинарной власти» М. Фуко. — СПб.: РХГИ, 2001. — 152 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali**
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro’yxatiga olingan.
Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).